

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Jo'rayeva	
Firoqiy va Partav	314
Z.Teshabojeva	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati	318
N.J.Abdusamatova	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash	322
Sh.A.Ermatova	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish	326
M.J.Jurabojeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi	331
Sh.M.Usanov	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rnini.....	334
V.A.Giyosova	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari	339
Г.Р.Абдуллаев	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
J.Sh.Amayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
M.T.Voxidova	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari	350
N.M.Xodjibolayeva	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari	354
Sh.M.Muxamedov	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
S.I.Raxmatullayeva	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi	371
M.A.Junaydullayev	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari	377
M.M.Temirova	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari	382
M.U.Kurbanov	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv	387
M.O.Batirkhanova	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	391
M.C.Ганиева	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
I.A.Ismoilov	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida	401
D.G'.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi	405
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir	408
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari	416
G'.M.Alamov	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rnini.....	420

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI PEDAGOGIK JAMOASINI MAQSADLI
BOSHQARISHDA ERGONOMIK YONDASHUV****ЭРГОНОМИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ЦЕЛЕВОМ УПРАВЛЕНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИМ
КОЛЛЕКТИВОМ ШКОЛ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ****ERGONOMICHESKIY PODHOD V TSELEVOM UPRAVLENII PEDAGOGICHESKIM
KOLLEKTIVOM SHKOL OBSHCHEGO SREDNEGO OBRAZOVANIYA****Kurbanov Muzaffar Ummatovich¹**¹Qo'qon davlat pedagogika instituti, ta'lim menejmenti kafedrasida katta o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ergonomik sharoitlar pedagogik jamoa mehnatining psixososyal jihatlariga, pedagoglarning mehnat sharoitidan qoniqishiga, ularning salomatligi va farovonligiga qanday ta'sir qilishi mumkinligi yoritib berilgan. Mehnat sharoiti, ish talablari va texnologik omillar bilan bog'liq holda, ish muhiti va mehnat faoliyatining noto'g'ri tashkil etilishi pedagoglarning salbiy idrokiga, psixologik stressga va sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin.

Аннотация

В этой статье рассказывается о том, как эргономические условия могут влиять на психосоциальные аспекты работы педагогического сообщества, удовлетворенность педагогов условиями труда, их здоровье и благополучие. В связи с физической средой, требованиями к работе и технологическими факторами рабочая среда и неправильная организация трудовой деятельности могут привести к негативному восприятию педагогов, психологическому стрессу и проблемам со здоровьем.

Abstract

This article discusses how ergonomic conditions can influence the psychosocial aspects of the teaching community, teacher satisfaction with working conditions, and their health and well-being. Due to the physical environment, job demands and technological factors, the work environment and poor management of work activities can lead to negative perceptions of teachers, psychological stress and health problems.

Kalit so'zlar: ergonomika, ergonomik sharoitlar, pedagogik jamoa, texnologik omil, pedagogik shart-sharoit.

Ключевые слова: эргономика, эргономические условия, педагогическое сообщество, технологический фактор, педагогические условия.

Key words: ergonomics, ergonomic conditions, pedagogical community, technological factor, pedagogical conditions.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha sohalarini isloh qilish davr talabi bo'lganidek, mamlakat ta'lim tizimini ham isloh qilish hamda uni umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga moslashtirish davr talabiga aylandi. Asosiy vazifa bu kabi islohotlar emas, balki har tomonlama bilimdon, har tomonlama yetuk va rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, milliy qadriyatlar va an'analarni hurmat qiladigan shaxslarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadigan o'zgarishlarning butun majmuasini amalga oshirishdir. Bu O'zbekiston ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining pedagogik jamoasini boshqarish muammosiga ham daxldordir. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi ergonomik yondashuv asosida zamonaviy maktabning ta'lim makonini tashkil etish muammosining muhimligidadir. Postindustrializm sharoitida tashqi va ichki ta'lim muhitining o'zgaruvchanligi pedagogik jamoaning moslashish davrining qisqaligi bilan amalga oshirilgan zamonaviy ta'lim tizimi ta'lim va tarbiya sinteziga asoslangan ta'lim sifatini oshirish imkonini tahlil qilish va maktab uchun qulay ta'lim muhitini yaratish zaruriyatini keltirib chiqardi [1]. Biroq, o'qituvchilar uchun eng dolzarb muammolar, xususan:

- ta'lim jarayonida o'tish davri bilan bog'liq hissiy, ijtimoiy, semantik hayotiy jihatlarining murakkablashib borishi;

- axborotning haddan tashqari ko'pligi, axborot oqimining zaif differentsiatsiyasi, raqamlashtirish va innovatsiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishining jadallashuvi, ma'lumot olish va qayta ishlash usullari va shakllarini murakkabligi;

- o'quvchilar shaxsining murakkablashib borishi.

Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichidagi ehtiyojlari maktab tomonidan hal qilinayotgan vazifalar mazmunining doimiy murakkablashuvini keltirib chiqarmoqda va pedagogik ta'sir ob'yekti

– o‘quvchi shaxsiyati ham murakkablashib bormoqda. Shunga ko‘ra, pedagogik jarayon va maktab ichidagi boshqaruv sifatiga qo‘yiladigan talablar ortib bormoqda. Tyez o‘zgaruvchan sharoitlarda maktabni modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirishdagi asosiy ko‘rsatkich ta‘lim muassasasi rahbaridir. “O‘quv jarayonini boshqarishda asosiy rol maktab ichidagi boshqaruv munosabatlari tizimida asosiy o‘rinni egallagan maktab rahbariga tegishli. Shuning uchun uning faoliyatini takomillashtirish maktabni boshqarish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi shartidir” [2, 4-bet]. Pedagogik jamoani faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish eng avvalo jamoa uchun qulay mehnat muhitini yaratishda iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotimizning maqsadi ergonomik yondashuv asosida zamonaviy maktab pedagogik jamoasining samarali mehnat muhitini tashkil etish va boshqarish jarayonini o‘rganishdir. Tadqiqot gipotezasi ergonomik yondashuvni hisobga olgan holda zamonaviy maktab pedagogik jamoasi mehnatini samarali tashkil etish va boshqarishning muhim ergonomik va pedagogik shartlari mavjudligini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy asosini maktab ta‘lim tizimining konseptual asoslari (A.V.Gavrilin, N.L.Selivanova va boshqalar); ta‘lim-tarbiya tizimini tashkil etish bo‘yicha ilmiy va uslubiy ishlar (M.Ya.Vilenskiy, V.V.Rubsov va boshqalar), pedagogik muhitning ergonomikasi masalalari (D.R.Bayetova, E.V.Voronina, A.A.Kriulina, V.N.Naumchik, L.P.Okulova, E.V.Ryabova R.S.Safin va boshqalar) tashkil etadi

Ilmiy asarlarni tahlil qilish (V.V.Adamchuk, V.P.Zinchenko, V.M.Munipova va boshqalar) shuni ko‘rsatadiki, pedagogika va ergonomikaning integratsiyasi tufayli ta‘lim-tarbiya xavfsizligi va qulayligini ta‘minlaydigan, o‘qituvchi va o‘quvchining uyg‘un shaxsiyatini rivojlantiradigan ta‘lim muhitini yaratish mumkin bo‘ladi. Biroq, hozirgi vaqtda zamonaviy maktabning ushbu manbai yetarlicha tadqiq etilmagan (o‘qituvchining o‘quvchi shaxsiga salbiy munosabati, o‘quvchilarning tajovuzkor xatti-harakatlari, maktab rahbari va o‘qituvchilar o‘rtasidagi salbiy munosabatlar).

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Ta‘limni raqamlashtirish munosabati bilan zamonaviy ta‘lim tashkilotlarida o‘qituvchilarning avtomatlashtirilgan ish o‘rinlari sonining ko‘payishi nafaqat o‘qituvchining funksiyalarini, balki umuman o‘quv jarayonini ham o‘zgartiradi.

O‘qituvchining kasbiy standarti zamonaviy maktabda va zamonaviy o‘qituvchida ta‘lim tizimini tashkil etish uchun yangi talablarni ilgari surmoqda. Zamonaviy voqelikda maktab rahbariyati ta‘lim-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishi uchun o‘qituvchining shaxsini rivojlantirish uchun shunday sharoitlarni yaratishi kerakki, bu o‘quv dasturlarini qulay va xavfsiz o‘quvchiga o‘zlashtirishi uchun yetkazib berishi, maktab o‘quvchilarining madaniyati va tarbiyasini shakllantirish, ularning mazmunli hayotini aniqlash, shu bilan birga sog‘lig‘ini saqlashga yordam beradi. Ushbu sharoitlarni ta‘minlash uchun ko‘p jihatdan ta‘lim muhitining moddiy-texnik xususiyatlarini o‘zgartirish, uning ko‘plab ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada tuzatish kerak. XXI asr pedagogikasi uchun asosiy ergonomik xususiyatlar sifatida organizmning antropologik, fiziologik, psixofiziologik, gigiyenik xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qituvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga asoslangan ta‘lim-tarbiya yondashuvlar lozim.

Ergonomika - bu inson tomonidan boshqariladigan samarali va xavfsiz tizimlarni o‘rganadigan va yaratadigan fan; shunga ko‘ra, ta‘lim tizimi kontekstida ergonomik yondashuv o‘qituvchi, o‘qituvchilar jamoasi tomonidan tashkil etilgan samarali, xavfsiz va qulay muhit uchun sharoit yaratadi. Ergonomikaning asosiy maqsadi faoliyat, vositalar va mehnat sharoitlarini optimallashtirishdir. Ta‘lim va tarbiyani texnologiyalashtirish davrida nafaqat ta‘lim muhitining barcha subyektlariga nafaqat intellektual yuk, balki psixologik, fiziologik jihatdan sezilarli darajada bosim oshadi. Maktab rahbari ko‘proq pedagog shaxsiyatining kognitiv-emosional xususiyatlarini (o‘z-o‘zini rivojlantirish, fikrlash, idrok etish, nutq, innovatsiyalarni o‘zlashtirish) o‘rganishi lozim hamda uning samarali va xavfsiz mehnat faoliyati uchun yetarli sharoit yaratish, har bir o‘qituvchining ehtiyojlari, imkoniyatlari va xohishlariga mos keladigan pedagogik va psixologik qulay muhitni ta‘minlash kerak.

Xususan, ta‘lim va tarbiya jarayonida kognitiv ergonomikaning asosiy qoidalaridan foydalanish, bizning fikrimizcha, o‘qituvchining aqliy va intellektual faoliyatini osonlashtirishi, simulyatorlardan foydalangan holda o‘qitish va ta‘limni yaxshilashi mumkin. Shunday qilib,

o'qituvchining o'zi zamonaviy mobil o'quv vositalari (kompyuterlar, planshetlar, trenajyorlar, telefonlar va boshqalar) bilan faol aloqada bo'lgan holda, qisqa va uzoq muddatli istiqbolda o'z ta'lim yo'nalishini yaratib, vaziyatni anglash jarayoniga undaydi. Shu bilan birga, ergonomik yondashuvni aktuallashtirish, maktabda texnik qurilmalardan foydalanishni oqilona tartibga solish, barcha tarkibiy bo'linmalarning sa'y-harakatlarini safarbar qilishga yordam beradi.

Ta'limdagi ergonomik yondashuv deganda o'qituvchilarning kasbiy faoliyati, o'quvchilarning o'quv faoliyati sifati, zamonaviy maktabning axborot va fan muhitini tashkil etish, uning axborot resurslari sifati, o'quvchining aqliy va intellektual sa'y-harakatlarini yengillashtirish, sog'liq uchun xavfsiz texnologiyalarni amalga oshirish uchun ergonomik talablar majmui tushuniladi [3]. Shu bilan birga, ergonomik yondashuv doirasida talabalarni gumanistik tarbiyalash imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq, buning uchun pedagogik jamoani maxsus tayyorlash kerak.

Ijtimoiy pedagogika kontekstida pedagogik munosabatlarning barcha subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishda ta'lim tizimining roli ta'kidlangan. "Ta'lim tizimi" pedagogik toifasining mohiyati quyidagicha izohlanadi:

1) jamiyatning ijtimoiy-madaniy makonining segmenti, uning qarama-qarshiliklarini aks ettiradi va shu bilan birga jamiyatni barqarorlashtiradi va insonparvarlashtiradi;

2) subyektlar, munosabatlar, makon, ta'lim mazmuni, uning vositalari, maqsadi va konsepsiyasi tizimning mafkuraviy yadrosi, texnologiyasi va amalga oshirish dasturi sifatida ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liq bo'lgan yaxlit pedagogik jarayon, tarkibiy qismlar barqaror munosabatlarda taqdim etiladi [4].

Ergonomik yondashuv yaxlit pedagogik jarayonni tashkil etishning sog'liqni saqlash, psixologik, axloqiy, profilaktik tamoyillarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya jarayonida teng imkoniyatlarni taqdim etadi. Zamonaviy maktabning ergonomik ta'lim maydonini shakllantirish shartli tipologik guruhlarni hisobga olgan holda pedagogik jamoada qulay psixologik muhitni tashkil etishdan boshlanishi kerak. Ushbu tarkibiy birlik jamiyatning prototipini, demokratik jamiyatning mini-modeli sifatida maktabda qulay mehnat muhitini yaratishga imkon beradi [5]. Ushbu modelda ta'lim va tarbiya jarayoni o'qituvchi individuallashtirish tamoyillariga (ta'lim va tarbiyaning samaradorligi va xavfsizligini kafolatlaydigan, shu bilan ta'lim, o'quv natijalarining muvaffaqiyatini ta'minlaydigan ergonomik ta'lim muhitini yaratish) va jamoaviylik (pedagogik jamoada, ma'lum sharoitlarda, ijtimoiylashuv jarayonlari amalga oshirilganda) asosida quriladi.

Ergonomik yondashuv asosida zamonaviy maktabning ta'lim tizimini muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik jamoani zamonaviy maktabda qulay va xavfsiz muhit yaratishga tayyorlash.

2. Zamonaviy maktabda ushbu muhitni yaratish bo'yicha o'qituvchilar faoliyatini tashkil etish.

3. O'quv jarayonida ergonomik yondashuvni qo'llash orqali maktab o'quvchilari va ularning ota-onalari uchun o'quv dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

XULOSA

Ergonomik yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida juda dolzarb yo'nalishdir. Nazariya va amaliyot shuni ko'rsatadiki, u ta'lim tizimi sharoitida, xususan, mazmunli hayot yo'nalishlari pedagogikasi pozitsiyalariga asoslangan holda eng samarali amalga oshiriladi. Maktab ruhiy-jismoniy barqarorlik, ijodiy faoliyat, ma'naviy-axloqiy, samarali ergonomik-pedagogik sharoitlar bilan ta'minlanganda zamonaviy maktabning samarali ta'lim muhiti vujudga keladi. Shu asosda o'quvchi shaxsini barkamol rivojlantirish, pedagogik jamoaning to'liq ishlashi, o'quvchilar va oilaviy munosabatlarni takomillashtirish uchun maqbul imkoniyatlar yaratiladi. Maktabda ergonomik yondashuvni unumli tashkil etish uchun quyidagilar zarur: birinchidan, maktab rahbari va pedagogik jamoani ergonomik tayyorlashni amalga oshirish; ikkinchidan, zamonaviy maktabda qulay va xavfsiz muhit yaratish bo'yicha o'qituvchilarning faoliyatini aks ettirish; uchinchidan, ota-onalarga ta'lim sifatini oshirish, sog'lig'ini saqlash va shaxsiyatni rivojlantirish maqsadida bolaning o'qish, uyda o'ynash uchun samarali va xavfsiz joy yaratish uchun ergonomik yondashuv usullari va vositalarini o'rgatish.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Зинченко В.П., Мунипов В.М. Основы эргономики. — М.: МГУ, 1979.

2. Назарова Т.С. Материально-техническое обеспечение школы: требуются новые решения // Стандарты и мониторинг в образовании. — 2000. - №4. — с.13-19.

3. Ульянова, И.В. Педагогика XXI века: монография. М.: МосУ

4. Ульянова, И.В. Современная педагогика: воспитательная система формирования гуманистических смысло-жизненных ориентаций школьников: монография. — М.: РосНОУ, 2015. — 416 с.
5. Эргономика: учебное пособие для вузов / В.В.Адамчук, Т.П.Варна, В.В.Воротникова и др.; Под ред. В.В. Адамчука. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 1999. - 254с.
6. Kurbanov Muzaffar Ummatovich. (2022). Purposeful management of the teaching staff of school: theory and practice. Open Access Repository, 8(12), 80–83.